

PARALINGVISTIK VOSITALAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ro'ziyeva Laylo Islomovna

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti I bosqich magistranti.

Barotova Muxiba Orifovna

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti

o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1503714>

Annotatsiya. Ushbu maqolada paralingvistik vositalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlash qobiliyatini rivojlanishdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqot boshlang'ich sinf o'qituvchilari, o'quvchilar ishtirokida olib borilgan kuzatish, so'rovnama va pedagogik eksperiment natijalariga asoslangan. Paralingvistik vositalarning (mimika, jest, imo-ishoralar, ovoz ohangdorligi, nutq tempi, makon munosabatlari) qo'llanilishi o'quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini faollashtirishi aniqlangan. Tadqiqot natijasida paralingvistik vositalardan foydalanishning samarali metodikasi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. Yakuniy natijalar paralingvistik vositalarning boshlang'ich ta'linda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlanishdagi samaradorligini tasdiqllovchi ilmiy asoslangan ma'lumotlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: paralingvistik vositalar, boshlang'ich ta'limga, fikrlash qobiliyati, nonutqiy muloqot, mimika, jest, ovoz ohangdorligi, pedagogik eksperiment.

**РАЗВИТИЕ МЫСЛITЕЛЬНОЙ СПОСОБНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ
КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ**

Аннотация. В данной статье исследуется роль паралингвистических средств в развитии мыслительных способностей учащихся начальных классов. Исследование основано на результатах наблюдений, анкетирования и педагогических экспериментов с участием учителей начальных классов, учеников и их родителей. Установлено, что применение паралингвистических средств (мимика, жесты, интонация голоса, темп речи, пространственные отношения) активизирует логическое, критическое и творческое мышление учащихся. В результате исследования была разработана и внедрена эффективная методика использования паралингвистических средств. Конечные результаты представляют научно обоснованные данные, подтверждающие

эффективность паралингвистических средств в развитии мыслительных способностей учащихся в начальном образовании.

Ключевые слова: паралингвистические средства, начальное образование, мыслительные способности, невербальная коммуникация, мимика, жесты, интонация голоса, педагогический эксперимент.

DEVELOPING THE THINKING ABILITY OF PRIMARY STUDENTS THROUGH PARALINGUISTIC MEANS

Abstract. This article examines the role of paralinguistic means in developing the thinking abilities of primary school students. The research is based on the results of observations, questionnaires, and pedagogical experiments involving primary school teachers, students, and their parents. It has been established that the use of paralinguistic means (facial expressions, gestures, voice intonation, speech tempo, spatial relationships) activates students' logical, critical, and creative thinking. As a result of the research, an effective methodology for using paralinguistic means was developed and implemented. The final results present scientifically based data confirming the effectiveness of paralinguistic means in developing students' thinking abilities in primary education.

Keywords: paralinguistic means, primary education, thinking abilities, non-verbal communication, facial expressions, gestures, voice intonation, pedagogical experiment.

Kirish. Zamonaviy pedagogika va psixologiyada o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim davrida shakllangan fikrlash qobiliyati keyingi o‘quv jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Bola shaxsining shakllanish davrida turli ta’limiy vositalar va metodlarning qo‘llanilishi uning kognitiv rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim jarayonida paralingvistik vositalar, ya’ni nonutqiy kommunikativ signallar (mimika, jest, imo-ishoralar, ovoz ohangdorligi, nutq tempi, makon munosabatlari) muhim ahamiyatga ega. Bu vositalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni boyitish, dars jarayonini jonlantirish va materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Biroq, paralingvistik vositalarning o‘quvchilar fikrlash qobiliyatiga ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi paralingvistik vositalarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi rolini aniqlash va samarali qo‘llash metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan metodika boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishga va o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Paralingvistik vositalar va ularning kommunikativ ahamiyati turli sohalarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilishi va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi roli nisbatan kam tadqiq etilgan mavzu hisoblanadi.

Paralingvistik vositalar haqidagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar G.L. Trager, E. Hall, R. Birdvistell, A. Mehrabian kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Ular nonutqiy kommunikatsiyaning turli jihatlarini o‘rganganlar va paralingvistik vositalarning muloqotdagi ahamiyati haqida qimmatli ma’lumotlarni to‘plaganlar.

O‘zbek olimlaridan A. Nurmonov, H. Ne’matov, N. Mahmudov, M. Hakimov kabi tilshunoslar paralingvistik vositalarning kommunikativ-pragmatik jihatlarini o‘rganganlar.

Pedagog olimlardan R. Safarova, Q. Yo‘ldoshev, R. Mavlonova, boshlang‘ich ta’lim metodikasi va o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish masalalarini tadqiq etganlar. Xorijda V.A. Labunskaya, I.N. Gorelov, V.F. Engarlichev kabi olimlar paralingvistik vositalarning psixologik va pedagogik ahamiyatini o‘rganganlar. J. Piaget, L.S. Vigotskiy, J. Brunerlar bolalarning fikrlash qobiliyatni rivojlanishining turli jihatlarini tadqiq etganlar. Yosh tadqiqotchi olimalardan M. Barotova esa o‘zbekona paralingvistik vositalarni tizimli tadqiq qilib, umumiste’molda qay darajada qo‘llanishini o‘rgangan.

Biroq, mavjud tadqiqotlarda paralingvistik vositalarning aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi roli yetarlicha o‘rganilmagan. Shuningdek, paralingvistik vositalardan foydalanishning samarali metodikasi ham ishlab chiqilmagan. Ushbu tadqiqot mavjud bo‘shliqni to‘ldirish va paralingvistik vositalarning boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilishining ilmiy asoslarini yaratishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda nazariy tahlil va pedagogik kuzatish usullaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlili asosida paralingvistik vositalarning turlari, ulardagi ma’no va o‘quv jarayonidagi o‘rni o‘rganildi. Pedagogik kuzatishlar Buxoro tumanidagi maktablarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining darslarini nazorat qilish orqali amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida quyidagi paralingvistik vositalar tahlil qilindi:

- **Ovoz bilan bog‘liq (prosodik) vositalar:** intonatsiya, ohang, pauza, ovoz balandligi va tembri

- **Kinestetik vositalar:** imo-ishoralar, mimika, ko‘z qarashlari
- **Proksemik vositalar:** masofa, pozitsiya va harakat

O‘qituvchilarning paralingvistik vositalardan foydalanish mahoratini baholash, shuningdek, ushbu vositalarning o‘quvchilarning fikrlash jarayoniga ta’sirini tahlil qilish uchun kuzatish bayonnomalari ishlab chiqildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida quyidagi natijalar olindi:

1. **Fikrni jamlash va diqqatni ushlab turish.** Pedagogik kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi ovoz ohangini o‘zgartirishi (past ovozdan baland ovozga o‘tishi, so‘zlar orasida pauza qilishi) o‘quvchilarning diqqatini dars materialiga qaratishga yordam beradi. Masalan, muhim ma’lumotni taqdim etishda ovoz balandligini pasaytirish o‘quvchilarning e’tiborini sezilarli darajada oshiradi.

2. **Fikrlash jarayonini faollashtirish.** Savollar berishda ma’lum bir imo-ishoralar, ko‘z qarashlari va yuz ifodalari bilan birga kelgan ovoz intonatsiyasi o‘quvchilarni faolroq fikrlashga undaydi. Masalan, bosh barmoqni iyakka qo‘yib, ko‘zlarni yuqoriga qaratib, "Bu masalan qanday yechish mumkin?" deb so‘rash o‘quvchilarda refleksiv fikrlash jarayonini faollashtiradi.

3. **Abstrakt tushunchalarni aniqlashtirish.** Murakkab va mavhum tushunchalarni tushuntirishda imo-ishoralar va harakatlar muhim rol o‘ynaydi. Masalan, "ko‘paytirish" tushunchasini tushuntirishda qo‘l harakatlari bilan birlashtirish harakati, "bo‘lish" uchun esa ajratish harakati o‘quvchilarga bu matematik amallarning mohiyatini tushunishga yordam beradi.

4. **Emotsional ziyraklikni rivojlantirish.** O‘qituvchining yuz ifodasi va ovoz toni o‘quvchilarda emotсional intellekti rivojlantiradi. Masalan, hikoya o‘qish jarayonida o‘qituvchining ovoz ohangini o‘zgartirishi, qahramonlarning emotсional holatlariga mos yuz ifodalari bilan o‘qishi o‘quvchilarning emotсional ziyrakligini oshiradi.

5. **Muloqot madaniyatini shakllantirish.** O‘qituvchi tomonidan maqsadli qo‘llanilgan paralingvistik vositalar o‘quvchilarga og‘zaki bo‘limgan muloqot madaniyatini o‘rgatadi, bu esa ularning ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.

Muhokama. Olingan natijalar paralingvistik vositalarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Bu natijalarni tahlil qilar ekanmiz, quyidagi muhim jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

1. **Paralingvistik vositalarning o‘ziga xos ahamiyati.** Tadqiqot natijalariga ko‘ra, og‘zaki bo‘limgan muloqot elementlari, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yoshdagи bolalar verbal ma’lumotdan ko‘ra paralingvistik signallarni yaxshiroq idrok

etadilar va eslab qoladilar. Bu xususiyat bolalardagi obrazli fikrlashning ustunligi bilan bog'liq. Shuning uchun, o'qituvchilar uchun paralingvistik vositalardan ongi ravishda foydalanish alohida ahamiyatga ega.

2. Kompleks yondashuv zarurati. Tadqiqot natijalaridan ko'rinish turibdiki, bitta paralingvistik vosita alohida olinganda katta samara bermaydi. Boshlang'ich ta'linda paralingvistik vositalardan kompleks foydalanish - ovoz, imo-ishora, mimika va harakatlarni uyg'unlashtirish eng yaxshi natija beradi.

3. O'qituvchi mahoratining ahamiyati. Paralingvistik vositalardan samarali foydalanish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Bu esa pedagoglarning nafaqat o'z fani bo'yicha bilimga, balki og'zaki bo'lмаган muloqot sirlarini egallagan bo'lishini talab etadi. O'qituvchi tayyorlash tizimida bu jihatga alohida e'tibor qaratish lozim.

4. Boshlang'ich ta'linda differential yondashuv. Paralingvistik vositalarning samaradorligi o'quvchilarning individual xususiyatlari ham bog'liq. Ba'zi o'quvchilar vizual ma'lumotga, boshqalari esa audio ma'lumotga sezgirroq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi turli xil paralingvistik vositalardan balansli foydalanishi maqsadga muvofiq.

5. Milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olish. Paralingvistik vositalarning ko'pchilik qismi milliy-madaniy xususiyatlarga ega. O'zbek madaniyatida qabul qilingan imo-ishoralar, mimikalar va ovoz ohanglari boshqa madaniyatlardagidan farq qilishi mumkin. Shuning uchun o'zbek maktablarida paralingvistik vositalardan foydalanishda milliy an'analar va qadriyatlarni hisobga olish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich ta'linda paralingvistik vositalardan foydalanishning quyidagi samarali usullarini taklif etish mumkin:

1. “Jonli hikoya” texnikasi. Matnlarni o'qishda ovoz toni, mimika va imo-ishoralardan faol foydalanish. Bu texnika o'quvchilarning tasavvurini rivojlantiradi va ular uchun abstract tushunchalarni konkretlashtiradi.

➤ **Tayyorgarlik:** O'qituvchi hikoya matnini tanlab, uni oldindan tahlil qiladi. Matnning qaysi qismlarida qanday paralingvistik vositalar qo'llanilishini belgilaydi.

➤ **Namoyish:** O'qituvchi avval o'quvchilarga oddiy tarzda matnni o'qib beradi, so'ngra "jonli hikoya" shaklida paralingvistik vositalardan foydalangan holda o'qiydi.

➤ **Muhokama:** O'quvchilardan qaysi holat yaxshiroq tushunilgani, qaysi qismlari ko'proq ta'sir qilgani haqida fikrlarini so'raydi.

- **Amaliyot:** O‘quvchilarga qisqa matnlar berilib, ularni “jonli” tarzda o‘qib berishni topshiradi.
 - **Qayta aloqa:** O‘quvchilarning chiqishlarini muhokama qilishadi va eng ta’sirli paralingvistik elementlarni aniqlab olishadi.
2. “**Mimik dialog**” o‘yini. O‘quvchilar juftliklarda faqat mimika va imo-ishoralar orqali ma’lumot almashishni o‘rganadilar. Bu o‘yin og‘zaki bo‘lmagan muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi va o‘quvchilarning emotSIONAL intellektini oshiradi.
- **Qoidalarni tushuntirish:** O‘qituvchi o‘yin qoidalarni tushuntiradi – og‘zaki so‘zlardan foydalanmay, faqat yuz ifodasi va imo-ishoralar orqali muloqot qilish kerak.
 - **Mavzular belgilash:** O‘qituvchi juftliklar uchun muloqot mavzularini tayyorlaydi (masalan, “yaqinda bo‘lgan ta’til”, “sevimli kitob”, “qanday kayfiyatdasan”).
 - **Namoyish:** O‘qituvchi bir o‘quvchi bilan mimik dialog namoyish qiladi.
 - **Juftlarni tashkil etish:** O‘quvchilar juftliklarga bo‘linib, berilgan mavzu bo‘yicha 3-5 daqiqa mimik dialog o‘tkazishadi.
 - **Tahlil:** Har bir juftlik o‘z tajribasi haqida gapirib, qaysi ma’lumotlarni to‘g‘ri uzatgani va qaysilarini tushunish qiyin bo‘lganini muhokama qilishadi.
3. “**Ovoz palitrasidan**” foydalanish. O‘qituvchi dars davomida turli xil ovoz ohanglaridan maqsadli foydalanadi: muhim ma’lumotni ta’kidlash uchun past, lekin aniq ovozda, qiziqarli faktlarni esa yuqori emotSIONAL ohangda taqdim etadi.
- **Namoyish:** O‘qituvchi turli ovoz ohanglarini namoyish qiladi (past, baland, hayajonli, tinch, savoliy, ta’kidlovchi).
 - **Matnni tayyorlash:** O‘qituvchi dars materiali matnnini belgilab, qaysi qismlarini qanday ohangda o‘qishni rejalashtiradi.
 - **Amalda qo‘llash:** Dars davomida o‘qituvchi rejalashtirgan ovoz palitrasidan foydalanadi:
 - ✓ Muhim ma’lumotlarni past, aniq va sekin ovozda;
 - ✓ Qiziqarli faktlarni hayajonli ohangda;
 - ✓ Savol-javoblarda ovoz intonatsiyasini o‘zgartirib.
 - **Refleksiya:** Darsning oxirida o‘quvchilardan qaysi ma’lumotlar esda qolganini so‘rab, ovoz ohangining ta’sirini tahlil qiladi.
 - **Amaliyot:** O‘quvchilarga turli matnlarni turli ohanglarda o‘qib berish topshiriladi.

4. “Tana tilini o‘qish” mashqlari. O‘quvchilarga turli emotsional holatlarni aks ettiruvchi rasmlar yoki videolar ko‘rsatiladi va ulardan bu holatlarga nom berish so‘raladi. Bu mashq o‘quvchilarning emotsional ziyrakligini rivojlantiradi.

➤ **Material tayyorlash:** O‘qituvchi turli emotsional holatlarni aks ettiruvchi rasmlar yoki qisqa videolar to‘plamini tayyorlaydi.

➤ **Tushuntirish:** O‘qituvchi asosiy emotsional holatlar (quvonch, g‘amginlik, hayajon, qo‘rquv, ajablanish) va ularning tana tilida qanday aks etishini tushuntiradi.

➤ **Namoyish:** O‘qituvchi o‘quvchilarga rasmlarni yoki videolarni ko‘rsatib, ulardan tasvirlangan emotsional holatni aniqlashni so‘raydi.

➤ **Guruh mashqi:** O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruhgaga emotsional holatlar ro‘yxati beriladi. Ular navbat bilan bu holatlarni imo-ishoralar orqali ko‘rsatishadi, boshqa guruhlar esa bu holatlarni topishga harakat qilishadi.

➤ **Individual mashq:** O‘quvchilarga kundalik hayotda uchratgan emotsional holatlarni kuzatish va ularni darsda muhokama qilish vazifasi beriladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, paralingvistik vositalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu vositalar orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishi, ularning emotsional munosabatini uyg‘otishi, murakkab tushunchalarini soddalashtirib tushuntirishi va o‘quvchilarning fikrlash jarayonlarini faollashtirishi mumkin.

Paralingvistik vositalardan foydalanishning eng samarali usuli kompleks yondashuvdir - turli xil og‘zaki bo‘lmagan muloqot elementlarini birgalikda qo‘llash. Shuningdek, paralingvistik vositalardan foydalanishda o‘quvchilarning individual xususiyatlari va milliy-madaniy kontekstni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’limda paralingvistik vositalardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash, ularga og‘zaki o‘lmagan muloqot sirlarini o‘rgatish zarur. Bu o‘qituvchi tayyorlash tizimida, shuningdek, malaka oshirish kurslarida alohida e’tibor qaratish lozim bo‘lgan masaladir.

Xulosa qilib aytganda, paralingvistik vositalar boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishning muhim vositasi bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini to‘liq ochishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun paralingvistik vositalardan foydalanish bo‘yicha maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish.

2. O‘quv qo‘llanmalar va darsliklarni yaratishda paralingvistik vositalardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘zda tutish.

3. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirish dasturlariga paralingvistik vositalardan foydalanish bo‘yicha maxsus modullarni kiritish.

4. Maktablarda o‘quvchilarning paralingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus to‘garaklar va mashg‘ulotlar tashkil etish.

Paralingvistik vositalarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi roli va ahamiyati bo‘yicha tadqiqotlar davom ettirilishi va kengaytirilishi

REFERENCES

1. Alimov X. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: "O‘qituvchi".
2. G‘oziyev E. (2018). Psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.
3. Jo‘rayev R. (2019). Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent: "Fan va texnologiya".
4. Musayev P. (2017). Paralingvistik vositalar va ularning kommunikativ ahamiyati. Toshkent: TDShI.
5. Shomaqsudov A. (2020). O‘zbek nutq madaniyati. Toshkent: "Adabiyot uchqunlari".
6. Cook, V. (2016). Second Language Learning and Language Teaching. New York: Routledge.
7. Mehrabian, A. (1971). Silent Messages. Belmont, CA: Wadsworth.
8. Pease, A. & Pease, B. (2018). The Definitive Book of Body Language. London: Orion.
9. Tomasello, M. (2019). Becoming Human: A Theory of Ontogeny. Harvard University Press.
10. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
11. Barotova M.O. (2023). O‘zbekona paralingvistik vositalarning tizimli tadqiqi. Avtoreferat. Buxoro davlat universiteti.